

Termiz shahridagi 18-umumta'lim məktəbida 9-may "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan "Xotira-abadiy!" nomli tadbir bo'lib o'tdi.



Ajdodlarni xotirlash va keksalarni e'zozlash, ulug' qadriyat hisoblanib, bu borada mamlakatımızda har yili qabul qilinayotgan dasturlarda yoshi ulug', nuroniylarga bo'lgan hurmat, e'tibor diqqat markazidadir.

9-may yurtimizda keng miqyosda "Xotira va qadrlash kuni" katta tantanalar bilan nishonlanib, 1941-1945 yillar urush va mehnat frontida tinchlik uchun kurashib halok bo'lgan jasur va matonatli o'g'lonlar xotirasi yod etiladi hamda urush va frontida jasorat ko'rsatgan nuroniylarimiz e'zozlanishi xalqimizga xos qadriyatlar ko'zgusi sanaladi.

Nuroniylarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni holidan xabar olish, ularni har tomonlama

qo'llab-quvvatlash an'anaga aylangan. "Xotira va qadrlash kuni"ni munosib kutib olish va nishonlash maqsadida bugun Termiz shahridagi 18-umumta'lim mакtabida "Xotira-abadiy!" nomli tadbir bo'lib o'tdi.

Yurtimizning bugungi tinch-osoyishta hayoti uchun jasorat ko'rsatib fido bo'lgan vatandoshlarimiz xotirasini yot etish esa eng oliy vazifamizdir. Zero "Inson aziz, xotira-muqaddas"dir.

Termiz shahar hokimligi Axborot xizmati.